

BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA YOSHLARNI TARBIYALASH G’OYALARI

Axtamova Iroda Madaminjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 3- bosqich talabasi

axtamovairoda536@gmail.com

Annotatsiya: Alisher Navoiy (9-fevral 1441-yil — 3-yanvar 1501-yil) — ulug‘ o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo‘lgan. G‘arbda chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi.

Аннотация: Алишер Навои (9 февраля 1441 - 3 января 1501) был великим узбекским и другим тюркским поэтом, мыслителем и государственным деятелем. На Западе его считают великим представителем чигатайской литературы, а на Востоке удостоивают звания «низоми миллати ва дин» (религия и конституция нации).

Abstract: Alisher Navoi (February 9, 1441 - January 3, 1501) is a great Uzbek and other Turkic poet, thinker and statesman. In the West, he is considered a major representative of Chigatai literature, and in the East he is awarded the title of "Nizomi millati va din" (religion and constitution of the nation).

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, til, “Mahbub ul-qulub”, millat, yomon illatar, din, ma‘rifat, adabiyot.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga juda katta e‘tibor qaratmoqda. Umuman yoshlarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch imkoniyatini ishga solmoqda. Chunki o‘tib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma‘naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalashga e‘tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”.

Xalqimiz tarixidan ma‘lumki, yurtimizdan shunday buyuk allomalar, olimlar, shoir-u yozuvchilar yetishib chiqqanki, ularning nafaqat qoldirgan boy ijodi va ma‘naviy merosi, balki sermazmun hayoti ham hozirgi kunda biz yoshlar uchun namunadir. Biz ana shunday olimlarimizning asarlarini o‘qib-o‘rganishimiz, o‘zimiz uchun zarur bo‘lgan ta‘lim va tarbiyaga ega bo‘lishimiz kerak.

O‘zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi, siyosatshunos va adabiyotshunos olim Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning ijodiy merosini o‘rganish va tadqiq etish biz yoshlarning bugungi kundagi muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Bu mutafakkir zotning milliy adabiyotimizga va ma‘naviyatimizga qo‘shgan hissasi katta. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov: "Insonni olam gultoji deb ulug‘lagan hazrat Navoiyning butun hayoti, butun ijodi zamirida ezgulik, adolat, nafasat kabi yuksak tuyg‘ular dunyoni obod va munavvar qiladi, bashariyatni ma‘naviy halokatdan

qutqaradi, degan qat'iy ishonch mujassam" deb bejiz aytmaganlar. Haqiqatan ham Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisidir. U XV asr o'zbek mumtoz adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' siyomidir. Shoir 1441-1501-yillarda Hirotida yashab o'tgan. Yoshligidan Xurosonning bo'lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan do'st bo'lgan. 10-12 yoshidan she'r yozishni boshlagan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin kishilardan bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Navoiyning zamondoshi bo'lmish tarixchi Xondamir yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra, mashhur o'zbek shoiri Lutfiy qarigan chog'larida Navoiy bilan ko'rishadi va uning:

Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh...

Matla'li g'azalini tinglab yuqori baholaydi va “Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga almashar edim”,- degan.

Shoir hayoti davomida musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo'ladi, o'z davrining taniqli shaxslari bilan ko'rishadi. O'zining she'riy mahoratini oshiradi. Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60 000 ga yaqin misrani tashkil etadi. 1483-1485 yillar Navoiy o'z ichiga besh dostonni olgan “Hamsa” asarini yaratgan: “Hayrat ul-Abror” (“Yaxshi kishilariing hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab' ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”). Uning so'nggi buyuk asarlaridan biri nasriy pandnoma yo'nalishida yozilgan asari “Mahbub ul-qulub” (“Ko'ngillarning sevgani”) dir. Bu asar 1500-yilda yozilgan. «Mahbub ul-qulub» asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo'lgan hayotiy muammolarga eng to'g'ri yechimlarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi. Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.

Haqiqatan ham, kishida barcha eng yaxshi fazilatlar mavjud bo'lsa, u shu fazilatlar bilan komillikka erishadi. Ayrim insonlarning boyliklari juda ko'p bo'lsa-yu, shu boyliklarini qayerga sarflashni bilmasa, insonlarga yaxshilik qilish yo'lida ishlatmasa, o'zida musulmon kishida bo'ladigan eng yaxshi fazilatlar bo'lmasa, bundan boylikdan ko'ra eng yaxshi fazilatlar afzaldir. Bundan tashqari Alisher Navoiy ushbu asarida yaxshi va yomon odamlar va ular qiladigan yaxshilik va yomonliklar haqida ko'p fikrlar bildirib o'tgan. Yaxshi odamlardan yomonlar ham yaxshilik kutmasligini, yaxshi insonlar yomonlarga ham qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishi va ular yomonlardan ham o'z yaxshiliklarini ayamasligini, yaxshilik qilish qo'lidan kelmaydiganlarga yomonlik ham qilmasligini va yaxshilarga qo'shib bo'lsa ham yaxshilik qilishni o'rganishi kerakligini asardan olingan quyida parchada ta'kidlaydi: “Yaxshidin yomonlar ham yomonlig' tama' tutmas, yaxshi yomonlarga ham yaxshilig'ni unutmas. Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham bore qilma. Yaxshimisan yomonlig'ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo'shul, yaxshilik tebrasig'a evrula olmasang, yaxshilar tebrasig'a evrul”.

Insonlar o‘z hayoti davomida bir-birlariga yaxshi va yomon so‘zlarni gapiradilar. Ayrim kishilar bir-birlariga yomon so‘zlarni aytib xafagarchilik qilib yuradilar. Lekin yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham tildan chiqadi. Shunday ekan, insonlar bir-birlaridan yaxshi so‘zlarni ayamay gapirsalar, chiroyli so‘zlar bilan umrlarini mazmunli o‘tkazsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida til va undan chiqadigan yaxshi va yomon so‘zlar haqida ko‘pgina fikrlarini aytib o‘tgan. Xususan, ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma kishilarni kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshatadi. Tili yomon odam xalqning ko‘nglini jarohatlashi va o‘z boshiga ofat yetkazishini asardan olingan quyidagi parchada aytib o‘tgan: “Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz! Harzago‘ykim, ko‘p takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otguncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko‘ngliga jarohat yetkurur, o‘z boshig‘a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish

harzag‘a bo‘g‘zin qirmog‘i – eshakning jihatsiz qichqirmog‘i.

Xo‘shgo‘ykim, so‘zni rifq va musoviy bila aytg‘ay, ko‘ngulga

yuz g‘am keladurg‘on bo‘lsa, aning so‘zidin qaytg‘ay. So‘z dadur har yaxshiliqni imkoni bor, munda debdurlarki, nafasning

joni bor. Masihokim, nafas bila o‘lukka jon berdi, go‘yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o‘zi ul savti

bila qurbaqag‘a shabihdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig‘a manba’ ham til, ahli shaqovatlar nahs kavkabig‘a matla’

ham til. Tiliga iqtidorlig‘ – hakimi xiradmand; so‘ziga ixtiyorsiz – laimi najand. Tilki, fasih va dilpazir bo‘lg‘ay – xo‘broq

bo‘lg‘ay, agar ko‘ngul bila bir bo‘lg‘ay.

Til va ko‘ngul xo‘broq a‘zodurlar insonda; savsan va

g‘uncha marg‘ubroq rayohindurlar bo‘stonda. Odamiy til

bila soyir hayvondin mumtoz bo‘lur va ham aning bila soyir insong‘a sarafroz bo‘lur. Til muncha sharaf bila nutqning

olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur.

Ayn ul-quzot til sharafidin masihguftor bo‘ldi va Husayn

Mansur til sur‘atidin dorg‘a sazovor.

B a y t:

Har necha biymi hajr so‘zi oshiq o‘lturur,

Vuslat bashorati yana jismig‘a jon berur”.

Insonda bir qancha yaxshi fazilatlar bilan birga ko‘pgina yomon illatlar ham bor. Shulardan biri yolg‘onchilikdir. Yolg‘onchilik-qabih illat va u o‘g‘rilikdan ham battardir. Yolg‘on gapiradigan odamni inson deb atab bo‘lmaydi. Shunday kishilar borki, ular juda ko‘p yolg‘on gapiradi. Shuning uchun bunday insonlar rost gapirganda ham hech kim ishonmaydi va yolg‘on gapiryapti deb o‘ylaydi. Yolg‘onchilik faqatgina yomon illat emas, balki eng katta gunoh hamdir. Shuning uchun doimo rost gapirishga odatlanish kerak. Chunki gapirilgan yolg‘on bir kun fosh bo‘ladi va yolg‘on gapirgan inson uyatga qoladi.

Yolg'onchilik oqibatida kishining boshiga ko'pgina ko'rgiliklar tushishi mumkin. Bundan tashqari, bundan insonning xalq orasida obro'yi bo'lmaydi.

Farzandlarga ham yoshligida yolg'on gapirish eng yomon illatligini, insonning boshiga ofat keltiradigan ish ekanligini uqtirib borish kerak. Faqatgina aytish emas, balki ota-onalarning o'zlari ham bolalariga namuna bo'ladigan darajada rostgo'y bo'lishlari kerak. Alisher Navoiy ham “Mahbub ul-qulub” asarida insondagi eng yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlar haqida ham fikr bildirgan. Olim ushbu asarida yolg'onchik illatiga ham ham alohida to'xtalib o'tganlar. Shoir yolg'onni chindek qilib gapiruvchi kishilarni kumushga oltin qoplab sotuvchi zargarga o'xshatadi. Bundan tashqari, gapirilgan yolg'onning yolg'onligi bilindandan keyin yolg'on gapirgan kishining uyatga qolishini quyidagi parchada aks ettirgan: ” Har kimki, so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'och uyolg'on. Yolg'onni chindek aytquvchi suxanvar – kumushni oltun bila ro'kash qiluvchi zargar. Yolg'on afsonalarda

uyqu kelturguvchi, yolg'onchi uyquda takallum surguvchi.

Yolg'on aytguvchi g'aflatdadur. So'zning asnofi bag'oyat cho'qdur, yolg'ondin yamonroq sinfi yo'qdur.

Ulki yolg'on bila sarfi avqot etgay, anga bu yamon

kelmagay yana mubohot etgay. Agar mustami'inni g'ofil

topqay, yolg'onin ching'a o'tkarsa maqsudin hosil topqay.

Zihi Tengrig'a yamon banda, ne Tengridin, ne xalqdin sharmanda. Mundoq nahsning chun erur yuzi yamonliq sari, bu

nuhusatshior qutluq uydin tashqari.

Ul kishini qutluq evdin tashqari surmak kerak,

Qutluq ev dunyo durur, ya'niki o'lturmak kerak.

Birovkim, yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro

bo'lg'on yuzin yog'lag'ay, kabira gunohdur. Oz so'z hamki

o'trukdur zahri muhlikdur – agarchi miqdori o'ksukdur”.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy o'z ijodi davomida yoshlarni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Bolalarga yoshligidan qaysi eng yaxshi fazilatlarini o'rgatish kerakligini, inson hayoti davomida qanday yomon illatlar orqali qiynalishi va boshiga kulfatlar tushishi, insonlarga doimo yaxshilik qiladigan insonlar xalqda hamisha obro'-e'tiborda bo'lishi va hayotda o'z o'rnini egallashini o'zining “Mahbub ul-qulub” asarida yozib qoldirgan. Ma'lumki, azal-azaldan yaxshilik va yomonlik o'rtasida kurash davom etib kelmoqda va yaxshilik doimo yomonlikning ustidan g'alaba qozonib kelmoqda. Shoir shularni qariyb 6 asr oldin yozib qoldirgan. Bizdan ancha oldin ilgari surgan. Demak, buyuklar o'z-o'zidan buyuk bo'lmagan. Ular yuksak ilm egalari bo'lganlar. Shunday buyuk mutafakkirlardan biri Navoiy bo'lgan. Shoirning o'zi hayot bo'lmasa, uning asarlari, nomi hamisha barhayot.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar toplami. 3 jild. Toshkent, 1988
2. Alisher Navoiy ”Mahbub ul-qulub”
3. Alisher Navoiy tavalludining 574 yilligiga bag'ishlangan metodik-biografik qo'llanma
4. Islombek Abdixakimov “Hikmatlar”
5. Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi